




ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR TA'LIMDA



Samarqand davlat chet tillar instituti

Roman-german tillar fakulteti Fransuz tili

filologiyasi kafedrasining 1-bosqich talabasi

Tolibova Begoyim Sharofiddin qizi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada muallif tomonidan ta'limni zamon talabi darajasida isloq qilish, uning sifatini yuksak talab darajasiga ko'tarish muammolari atroflicha ko'rib chiqilgan bo'lib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajriba keng yoritilgan. Shuningdek maqolada yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim jarayonining sifatini belgilovchi asosiy xususiyatlar ko'rsatib berilgan hamda oliy o'quv yurtidagi sifat tizimi tushunchasini asosini ifodalovchi qoidalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, sotsial menejment, globallashuv, boshqaruv, kordinatsiya, mutaxassis, kadrlar, oliy ta'lim, jarayon, madaniyat, koserpsiya, mehnat taqsimoti.

USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS

ABSTRACT

In this article, the author discusses in detail the problems of reforming education at the level of modern requirements, raising its quality to a high level of demand, the national and foreign experience in training highly qualified personnel. The rules that represent the basis of the concept of quality system in higher education are given. Five universal elements of the management system based on the principles of quality management are substantiated and analyzed to determine whether these elements are



specific to any organization. Keywords: Education, social management, globalization, management, coordination, specialist, human resources, higher education, process, culture, concept, division of labor.

KIRISH

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda yashay oladigan yoshlarni tayyorlash uchun asosiy vazifasini muayyan miqdordagi bilimlarni berishdan iborat deb hisoblaydigan an'anaviy ta'lim yo'sini mutlaqo yetarli emas. Chunki ilm-fan va texnika shu darajada rivojlandiki, endi odam biror fandagi eng asosiy tushunchalarni ham xotirasida saqlab qola olmaydi. Buning ustiga, tinimsiz o'zgarishlardan iborat bo'lib qolgan hayotga mustaqil qadam qo'yayotgan yoshlar ana shunday o'zgarishlarga ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan tayyor bo'lmasa, raqobatlar kurashidan iborat dunyoda o'z o'rmini topolmasligi mumkin. Hozirgi kunda ta'lim tizimida boy tajribalar yig'ilgan. Chunonchi, ishbilarmonlik o'yinlari, kompyuterli o'qitish, individuallashtirilgan o'qitish, insonparvarlik, hamkorlik, shaxsni erkin tarbiyalash va hokzo

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda xorij tajribalaridan andoza olish, ijodiy yondashgan holda amaliyotda joriy etish, zamon talabiga mos ravishda me'yoriy hujjatlar, o'quvmetodik adabiyotlar, o'quv metodik majmualarni ishlab chiqish, ilg'or xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbar va mutaxassislarida zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish vazifalari dolzarb masalalar sirasiga kiritilmoqda. Shu bois mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish yuzasidan farmon va qarorlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2016-yil 29-dekabrdagi PQ2707-sonli, "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 9- sentyabrdagi PQ3261-son qarorlari, "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017- yil 30- sentyabrdagi PF-5198 sonli Farmoyishi shular jumlasidandir. "Maktabgacha ta'lism konsepsiysi"ning paydo bo'lishi maktabgacha ta'lism mazmunini yangilash, umumiy amaliyotda yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o'tkazish va pedagoglar tomonidan o'qitishning yangi usullari va shakllarini o'rganish bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalarni qizg'in muhokama qilishning boshlanishi bo'ldi. Mahalliy maktabgacha ta'limga innovatsion jarayonlarni rivojlantirish normativ va dasturiy-metodik hujjatlarda aks ettirilgan. Ushbu ishda ta'limga barcha darajalari, metodologiya xizmati, ilm-fan va amaliyotning barcha darajadagi mutaxassislar ishtirok etib, birlashtirilgan ta'limga maskani yaratildi. Maktabgacha ta'limga sohasi uzlusiz ta'limga tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Respublikada ta'limga tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'limga sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda. Jumladan, MTTda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, didaktik topshiriqlar va ishlanmalar, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha zamonaviy shakl va usullarni ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada tahlil qilinmaganligi hamda ular singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'limga dasturlari tatbiq qilinmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati ijodkor emasligi, ta'limga tarbiya sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi faktorlarni keltirish mumkin. Bundan tashqari, maktabgacha ta'limga sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta'limga tashkilotlaridagi ta'limga jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi. Ta'limga tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichida uning birinchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limga jadal o'zgarishlar yuz bermoqda va ular quyidagilarda namoyon bo'lmoqda: maktabgacha ta'limga tashkilotlari faoliyatining


huquqiy-me'yoriy asosi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim tashkilotlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi turlariga o'tmoqda; nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'i kengaymoqda; ta'limning ilg'or texnologiyalari joriy etilmoqda; xodimlarning malaka oshirish tizimi takomillashmoqda; qisqa muddatli guruhlar asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muqobil shakllari joriy etilmoqda. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy tizimi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.



Ta'lim jarayoni bola shaxsiga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, maktabgacha yoshdagи bolalarning ta'lim-tarbiyasi shaxsning rivojlanishida ijodiy va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda ta'lim-tarbiyaning usul va uslublari tizimidan tashkil topgan hamkorlik pedagogikasi tamoyillariga tayanib amalga oshirilishi lozim. Maktabgacha ta'lim sifati - natija haqida bola shaxsini rivojlantirish nuqtai nazaridan bolalar quyidagi shaxsiy natijalarni qanday egallaganiga qarab so'z yuritish mumkin: tizimli tabaqalanadigan malakalilik:

- til malakasi, bolaning o'z fikrlari, istaklari va niyatlarini nutq vositasida va nutqsiz vositalarda erkin ifodalashni nazarda tutadi;
- ijtimoiy malaka, har bir insonga oliy qadriyat sifatida yondashishni, uning o'ziga xosliklari va manfaatlarini tushunish mahoratini, uning hissiy holatidagi o'zgarishlarni payqashni, vaziyatga qarab muloqot usullarini tanlashni o'z ichiga oladi;


- intellektual malaka, o'z maqsadiga erishish uchun bolaga yangi xattiharakatlarini ijro etishga va ularni bajarishga yordam beruvchi umumiy intellektual faoliyatni shakllanganligini nazarda tutadi;
- jismoniy malaka, bolaning o'z yosh darajasiga mos keluvchi turli harakat turlarini egallaganligini ko'rsatadi; ixtiyorivlik. bola tomonidan qoidalar va me'yorlarga muvofiq o'z xattiharakatini boshqarish ko'nikmasida namoyon bo'ladi; mustaqillik. kundalik hayotda va ishda paydo bo'ladigan turli vazifalarni bola tomonidan kattalarning yordamisiz mustaqil kun tartibiga qo'yish va hal qilishni ta'minlaydi; mas'uliyat. "mumkin" va "mumkin emas", "yaxshi" va "yomon", "xohlayman" va "kerak" o'rtaida tanlov vaziyatida paydo bo'ladi; Tahlil va natijalar. Conclusions and suggestions aktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etishning mazmun va mohiyatini amalda qo'llashga oid qator mashg'ulotlar o'tkazildi. 1. Topshiriq: "Bu rasmlar nimasi bilan farqlanishini aytgin". Sizning kichkintoyingiz "semiz" va "ozg'in" so'zlar mohiyatini tushungan bo'lishi kerak.



2. Topshiriq: "Bu rasmlar nimasi bilan farqlanishini aytning". Sizning kichkintoyingiz "baland, novcha" va "past, pakana" so'zlar mohiyatini tushungan bo'lishi kerak.



Avval nima, keyin nima? Rivojlantiruvchi loto o'yini 5-7 yosh O'yin doskasi Kartochkalar



Maktabgacha ta'lif tashkilotining Tayyorlov guruhida 32 ta tarbiyalanuvchi, keyingi guruhida 35 ta tarbiyalanuvchi, oxirgi tayyorlov guruhida esa 35 ta tarbiyalanuvchi mavjud bo'lib, sinov shu uchta o'zbek guruhlarida olib borildi. Tajribalarimiz avvalida tayyorlov guruhlarida tarbiyalanuchilarining o'zlashtirish darajasini quyidagi ko'rinishini aniqladik.

1- jadval

Tanlanmalar	Qoniqarsiz	Qoniqarli	Yaxshi	A'lo	Tarbiyalanuvchilar soni
Tajriba guruhi	19	16	28	4	67
Nazorat guruhi	32	14	18	5	69
Jami	51	30	46	9	136

Ta'limi tajribalar asosida olingan natijalar tadqiqot uchun ko'zlagan maqsad va ilmiy g'oyaning asosli ekanini ko'rsatdi. Tajriba yakunida olingan ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lif tashkiioti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etishning nafaqat ularning bilim darajalarini oshishiga xizmat qilib, balki ularda o'yin faoliyati, psixofiziologik xususiyatlari, jumladan tafakkuri, xotirasining shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Buni quyidagi jadval asosida ko'rishimiz mumkin:

2-jadval

Tanlanmalar	Qoniqarsiz	Qoniqarli	Yaxshi	A'lo	T arbiyalanuv chilar soni
Tajriba guruhi		2	11	54	67
Nazorat guruhi	31	12	20	6	69
Jami	31	14	31	60	136

Yuqoridagilardan xulosa chiqargan holda tajriba ishlarimizni quyidagilarga qaratdik. 1. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi mavzular bo'yicha topshiriqlar og'zaki test asosida o'tkazildi. 2. Tajriba avvalida 5,97 foiz o'zlashtirishga, tajriba yakunida esa 80,59 foiz o'zlashtirishga erishdilar. MTTda o'tkazilgan tajribasinovalar ishlarining natijalari juda ham quvonarli. Bundan ma'lum bo'ladiki, tajribadan keyingi holat tajribadan oldingi holatdan yuqori ekan.

Demak, ushbu maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etishda yaxshi natijalarga erishgan deyish mumkin. Ta'lim samaradorligini oshirish, eng avvalo, tarbiyachining pedagogik mahorati hamda uning ta'lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda tarbiyachilarining pedagogik mahorati darajasi har bir mashg'ulot hamda o'r ganilayotgan mavzuning tarbiyalanuvchilarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvni taqozo etmoqda. Texnologik yondashuv negizida namoyon bo'luvchi holatlarning asosiysi – bu dars jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi sanaladi. Maktabgacha ta'lim sifatiga ta'sir qiluvchi tashqi muhit omillariga ijtimoiy buyurtmali maqsadlardan tashqari maktabgacha ta'limga davlat me'yorlari (talablari), shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berish uchun zarur bo'lgan tashqi resurslar (kadrlar, axborot, moddiy va hokozo) kiradi. Xulosa o'rnida shuni qayd etish lozimki, texnologik yondashuv asosida ta'limni tashkil etish ijobiy natijalarni beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

- “Zamonaviy ta'lim usullari” deganda maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarini o'r ganish bo'yicha tarbiyalanuvchilarning oldiga qo'yilgan

pedagogik muammoni mustaqil yechishga xizmat qiadigan interfaol metodlar ko'zda tutiladi.

2. Adabiy ta'lif samaradorligiga erishishning eng maqbul yo'li – bu maktabgacha ta'lif tashkilotlarida fan mashg'ulotlarini o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash sanaladi.
3. Maktabgacha ta'lif tashkiloti mashg'ulotlari zamonaviy tashkil etilsa, tarbiyalanuvchilarda samarali muloqot va o'z fikrini to'g'ri, ravon, ifodali bayon etish hamda asosli himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi.
4. Ta'lif samaradorligi tarbiyachilar tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiya nazariyasi asoslari borasidagi nazariy va amaliy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga bog'liq.
5. Zamonaviy usullar tarbilanuvchilarni faollashtiradi, ular o'zaro bahs-munozara asnosida kichik hikoyalarning mohiyatini teranroq anglaydilar.
6. Tarbiyalanuvchilar bilan hamkorlikda mashg'ulotlar uyushtirilsa, kichik guruhlar tashkil etilsa, topshiriqlar alohida tarbiyalanuvchiga emas, balki kichik guruhlarga berilsa, bolalarning birgalikda faoliyat ko'rsatish zarurati va ko'nikmasi yuzaga keladi.
7. Maktabgacha ta'lif tashkiioti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish metodikasiga amaliy-uslubiy jihatdan e'tibor qaratish va pedagog-tarbiyachilarining kompetentsiyaviy yondashuv asosida faoliyat olib borish imkoniyatlari qamrovini kengaytirishga xizmat qilishi lozim.
8. Maktabgacha ta'lif tashkiloti mashg'ulotlarini interfaol usullarda o'qitishni tashkil etishdan oldin joylarda tarbiyachilarining innovatsion faoliyatini maqsadli va samarali tashkil etishga mo'ljalangan maxsus o'quv seminarlari o'tkazish lozim.
9. Pedagog-tarbiyachilarini maktabgacha yoshdagи bolalarni zamonaviy texnologiyalar bilan qurollantirish maqsadida "Maktabgacha ta'lif tashkiloti mashg'ulotlarini zamonaviy tashkil etish texnologiyalari" nomli metodik qo'llanma yaratish.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz." - T.: O'zbekiston, 2017.

2. Abdullayeva N. Maktabgacha ta'limga variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped. fan. nom... diss. –T.: 2020. – 164 b.
3. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в зарубежных педагогических поисках. –М.: «Арена», 1994.
4. Qodirova F.R., Qodirova R.M. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o’rgatish metodikasi”, O’quv-metodik qo’llanma, -T.: 2004.
5. Монахов В.М. Введение в теорию педагогических технологий. Монография, г. Волгоград «Перемена» 2006.
6. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. 2000-y.
7. O’zbekiston respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirining buyrug’i. 2018- yil 18 –iyun.
8. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o’quv dasturi. //Mualliflar: I.V. Grosheva, L.G.Evstafeva, D.T.Maxmudova, SH.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova.- Toshkent, 2018.-59 b.
9. Qodirova F. Pedagog kadrlarga yangi pedagogik texnologiyalar haqida. //Til va adabiyot ta’limi. 2001. 4-son. 9-10-b.
10. Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatishning ilmiy-metodik asoslari. Ped.fan.dok. ...diss. -T.: 2004. -262 b.